


Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida Xorazm viloyatida jami 10 328,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,5 % ni tashkil etdi.



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	10 328,9	128,5
Urganch sh.	1454,8	131,9
Xiva sh.	444,0	114,5
Bog'ot	430,0	166,0
Gurlan	366,3	132,8
Qo'shko'pir	357,7	129,7
Urganch	1361,6	126,8
Hazorasp	856,4	164,7
Tuproqqal'a	183,0	158,8
Xonqa	608,7	132,1
Xiva	805,1	178,1
Shovot	349,0	130,1
Yangiariq	297,3	123,4
Yangibozor	346,6	162,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar- iyul oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,5 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 152,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,3 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 138,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,2 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 142,8 % ni tashkil etdi..

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 127,9	759,1	11,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	5,2 m	175,6	
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 429,3	1 542,7	321,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	111,5	125,7	137,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 136,9		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	110,3		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyul oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 898,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,9 marta o'sdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 10,3 % ga ko'payib, 18,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,6 % i to'g'ri kelib, qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ni tashkil etgan holda 4 293,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 40,1% ni yoki 4 136,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga kamaydi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik tashkilotlar	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik tashkilotlar	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Xorazm viloyati	1 898,2	4 293,8	4 136,9	292,1	118,0	110,3
Urganch sh.	308,1	948,1	198,7	183,6	122,7	122,6
Xiva sh.	26,4	324,8	92,7	3,6m.	106,6	122,3
Bog'ot	209,7	114,1	106,2	2,9m.	117,4	119,9
Gurlan	44,3	225,5	96,5	8,8m.	117,0	123,7
Qo'shko'pir	6,5	220,2	131,0	144,6	136,6	119,0
Urganch	195,1	852,3	314,2	4,5m.	111,4	118,4
Hazorasp	313,1	300,4	242,9	31,5m.	97,9	119,7
Tuproqqal'a	63,0	60,2	59,8	4,4m.	114,6	123,6
Xonqa	201,3	236,2	171,3	171,8	117,0	120,8
Xiva	422,7	286,5	95,9	3,4m.	115,4	118,8
Shovot	13,7	217,6	117,6	151,5	135,2	119,7
Yangiariq	16,7	172,8	107,8	4,2m.	117,0	120,8
Yangibozor	16,1	172,0	158,5	173,1	2,3m.	121,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Hazorasp tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 31,5 m.), Gurlan tumani (8,8 m.) va Urganch tumanida (4,5 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangibozor tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.), Qo'shko'pir tumani (136,6 %) va Shovot tumanida (135,2 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

B. Tillayev
62 227-77-88 (9020)

Manzil:

